

11-dars. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi



1. Jadval bo'yicha Navoiy viloyatining shaharlarida necha nafar aholi yashashini aniqlang. Har bir sonning **xonalari tarkibini** ayting.

No	shahar nomi	aholi soni (nafar)
1	Navoiy	166 500
2	Zarafshon	90 400
3	G'ozg'on	9 300
4	Uchquduq	34 800
5	Nurota	51 700

Agar sinf xonasida **0 raqami** turgan bo'lsa, sonni o'qishda bu xona aytilmaydi. Va aksincha, agar sonni o'qishda xona aytilmasa, bu xonaga **0 raqami** yoziladi.

minglar sinfi			birlar sinfi		
yuz minglar	o'n minglar	minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
1	5	3	0	0	5

153 005 – bir yuz ellik uch ming besh



2. Sonlarni **raqamlar bilan** yozing:

- ikki yuz o'ttiz ming sakkiz yuz ellik;
- o'n sakkiz ming uch yuz;
- yetmish uch ming qirq besh;
- olti yuz yetti ming uch;
- qirq besh ming yigirma sakkiz.



3. Navoiydan Zarafshongacha avtobus chiptasining narxi 9 000 so'm.

- 4 kishilik oila uchun chiptalarga qancha to'lash kerak?
- Navoiydan Zarafshongacha taksi narxi 45 000 so'm. Bu oila uchun qaysi biri foydaliroq: avtobusda borishmi yoki taksidami? Ular qancha pulni tejashlari mumkin?



4. **Qulay** usul bilan hisoblang.

$$224 + 38 + 76$$

$$612 - (312 + 196)$$

$$(759 + 128) - 159$$

$$373 + 141 + 59$$

$$927 - (268 + 227)$$

$$(207 + 394) - 294$$



5. Masalalarga ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) 7 juft tilla sirg'a uchun 28 gramm tilla kerak bo'ladi. Shunday bir juft sirg'a uchun necha gramm tilla kerak bo'ladi?

b) Zargar bir kunda 9 juft sirg'a tayyorlaydi. 6 kunda u necha juft sirg'a tayyorlaydi?



6. **4, 6, 7** raqamlaridan foydalanib, barcha mumkin bo'lgan uch xonali sonlarni tuzing. Sonlarda raqamlar takrorlanishi mumkin.

a) Nechta turli son hosil bo'ldi?

b) Qanday sonlar ko'proq hosil bo'ldi: juft sonlarmi yoki toq sonlarmi?



7. Navoiy viloyatida qadimgi qoyatosh rasmlari bilan mashhur g'or bor. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni amallarning bajarilish tartibida joylashtiring va bu g'or qanday atalishini bilib oling.



$$(7 \cdot 4 + 32) : 10 + (42 - 27 + 30 : 6) + 6 \cdot 8$$

A 60

Y 74

M 15

I 20

S 48

R 5

S 28

O 26

SH 6



8. **Sonlarni** ularning tarkibi bo'yicha yozing.

26 ta minglik va 7 ta birlik

405 ta minglik va 13 ta birlik

19 ta minglik va 42 ta birlik

238 ta minglik va 401 ta birlik

9. "Afrosiyob" poyezdi jadval bo'yicha soat **7:30** da Toshkentdan jo'nab ketishi va soat **10:58** da Navoiyga yetib borishi kerak. Poyezd yo'lda qancha vaqt bo'ladi?

